

# RAMAZON KUNDALICI

1441/2020

7+



*Assalamu Alaykum va Rahmatullahi va  
Barakatuh*

**MENING ISMIM**

**BU MENING RAMAZON KUNDALIGIM**



بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

# Ota-Onalarga



“Ramazon Kundaligi” farzandingiz nafaqat Ramazon oyida, balki undan keyin ham sevib foydalanadigan kundalikdir, inshaaALLOH. Kundalikdagi barcha ma'lumotlar ishonchli,

Qur'oni Karimni to'g'ri tafsirlariga va sahih hadislarga asoslangan manbalardan olindi. Ma'lumotlar diqqat bilan ko'zdan kechirildi.

Dinimiz asoslarini imkon qadar bolalar tushunadigan tilda yoritib berishga va soddalashtirishga harakat qildik. Hamma bolalarning o'qish va tushunish qobiliyati har xil bo'lsada, bu Kundalik 7 yosh va undan yuqori bolalar uchun Siz-ota-onalarning yordami bilan tushunarli bo'ladi va foydali bo'ladi, deb umid qilamiz. Kundalikni birgalikda yuritish davomida ota-onalar farzandlari bilan go'zal xo'tiralarga ega bo'lishadi, Alloh xohlasa. Farzandingizga Kundalikdagi ba'zi topshiriqlarni bajarishda, Ramazon, namoz va savob amallar sanog'ini qilishda Sizning yordamingiz kerak bo'lishi mumkin. Kundalikda Qur'oni Karim oyatlari, Allohnинг kalomi o'rinn olgan. Shu sababli uni pokiza joyda o'qib, o'rganishingizni va ehtiyoftashingizni so'raymiz.

ALLOH taolo ushbu Kundalikning tugallanishiga hissa qo'shgan barcha insonlarga behisob ajr bersin va barcha bolajonlarga foydali qilsin!

Amin!



# RAMAZONIM SANOG'I



1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

11 12 13 14 15 16 17 18 19 20

21 22 23 24 25 26 27 28 29 30



Aziz bolajonlar!

Siz ushbu sahifani kesib, devorga yoki mantar taxtasiga yopishtirib qo'yishingiz mumkin.  
Ramazonning yangi kuni kirib kelganida, bayroqchalarни birma bir boyab qo'ying.



# RAMAZONDAGI NATIJAM



|        |  |        |  |
|--------|--|--------|--|
| 1-kun  |  | 16-kun |  |
| 2-kun  |  | 17-kun |  |
| 3-kun  |  | 18-kun |  |
| 4-kun  |  | 19-kun |  |
| 5-kun  |  | 20-kun |  |
| 6-kun  |  | 21-kun |  |
| 7-kun  |  | 22-kun |  |
| 8-kun  |  | 23-kun |  |
| 9-kun  |  | 24-kun |  |
| 10-kun |  | 25-kun |  |
| 11-kun |  | 26-kun |  |
| 12-kun |  | 27-kun |  |
| 13-kun |  | 28-kun |  |
| 14-kun |  | 29-kun |  |
| 15-kun |  | 30-kun |  |

Aziz bolajonlar!

To'liq kun ro'za tu'tsangiz yulduzchalarni sariqqa bo'yang

Yarim kun ro'za tu'tsangiz yulduzchalarni qizilga bo'yang



# MENING RAMAZONDAGI YAXSHI AMALLARIM JADVALI

| Namoz  | Ro'za<br>(to'lq kun/yarim kun) | Qur'on<br>tilovati | Duo Qilish | Islom haqida<br>o'rGANISH | Sadaqa<br>ehson qilish |
|--------|--------------------------------|--------------------|------------|---------------------------|------------------------|
| 1-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 2-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 3-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 4-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 5-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 6-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 7-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 8-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 9-kun  |                                |                    |            |                           |                        |
| 10-kun |                                |                    |            |                           |                        |
| 11-kun |                                |                    |            |                           |                        |
| 12-kun |                                |                    |            |                           |                        |
| 13-kun |                                |                    |            |                           |                        |
| 14-kun |                                |                    |            |                           |                        |
| 15-kun |                                |                    |            |                           |                        |



# MENING RAMAZONDAGI YAXSHI AMALLARIM JADVALI

|        | Namoz | Ro'za<br>(to'lq kun/yarim kun) | Qur'on<br>tilovati | Duo Qilish | Islom haqida<br>o'rGANISH | Sadaqa<br>ehson qilish |
|--------|-------|--------------------------------|--------------------|------------|---------------------------|------------------------|
| 16-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 17-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 18-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 19-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 20-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 21-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 22-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 23-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 24-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 25-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 26-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 27-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 28-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 29-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |
| 30-kun |       |                                |                    |            |                           |                        |

# Ramazon boshlandi!

**NABIY ﷺ "HIOLNI**

**KO'RMA GUNCHА RO'ZA TUTMANGLAR. TO UNI KO'RMA GUNCHА OG'IZ OCHMANGLAR.  
AGAR U SIZLARDAN BULUT BILAN TO'SILIB QOLSA, HISOBINI QILINGLAR." DEDILAR.**

**BUXORIY VA BOSHQALAR RIVOYAT QILISHGAN**

Va nihoyat hammamiz intizorlik bilan kutgan rahmat oyi, mag'firat oyi kirib kelmoqda.

Uning kirganini osmonda yangi oyni ko'rishimiz bilan bilib olishimiz mumkin. Odadda Ramazon kirkach, musulmonlar bir-birlarini tabriklaydilar. Bu oyga yetkazgani uchun Allohg'a hamdlar, shukronalar ay'tadilar.

Yangi oy to'lganini bilish oson ish emas, bolajonlar. Ramazon ro'zasining boshlanishini aniqlash

ramazondan bir oy oldin boshlanadi. Chunki oldin sha'bon oyining birinchi kuni aniqlanishi lozim. Sha'bonning yigirma to'qqizinchи kuni shomdan oldin ramazon hilolini ko'rishga chiqish vojib bo'ladi. Agar shu kuni oyni hamma ko'rsa, ertasi kuni ramazon ro'zasi tutiladi.

Ramazon hilolini hamma ko'rishi juda kam bo'ladigan holat. Havo bulutli yo chang bo'lganidan hech kim yangi oyni ko'rmasligi ham mumkin. Bunday holatlarda diniy idora muftiyisining qaroriga ko'ra, Ramazon e'lon qilinadi.

Mana bu duoni yangi oyni ko'rganingizda o'qishingiz lozim.

**اللَّهُمَّ أَهْلِهِ عَلَيْنَا بِالْأَمْنِ وَالْإِيمَانِ ، وَالسَّلَامَةَ وَالإِسْلَامَ  
وَالتَّوْفِيقَ لِمَا تُحِبُّ وَتَرْضَى ، رَبُّنَا وَرَبُّكَ اللَّهُ**

Allahumma ahillahu 'alaynaa bil amni wal imani,  
was-salaamati wal islaami, wat-tawfeeqi limaa tuhibbu wa tardaa, Rabbunaa wa  
Rabbuka Allah.

ALLOHim, bizga yangi oy (Ramazon oyi)ni omonlik, iymon, salomatlik, islam, tafviq va SEN sevgan amallar bilan keltirgin, mening va sizning Robbingiz ALLOHdir.



Ajoyib g'oya!

Oila a'zolaringiz, do'stlaringiz va qo'shnilaringiz uchun Ramazon Muborak tabriknomalarini o'z qo'llaringiz bilan yasab, ularni xushnud eting!

# Ijadkarlikka nima deysiz?



# Ramazon qanday ay?

**RAMAZON OYIKI, UNDA ODAMLARGA HIDOYAT HAMDA HIDOYATU  
FURQONDAN IBORAT OCHIQ BAYONOTLAR BO'LIB QUR'ON TUSHIRILGANDIR...**

**BAQARA: 185**

Ramazon - hijriy yil hisobining to'qqizinchi oyidir. Islom dinida Ramazon oyida Alloh Muhammad sollallohu alayhi vassallamga Qur'oni vahiy qilgan. Shu sababli, Ramazon muqaddas oy hisoblanadi, bu oyda musulmonlarga ro'za tutish buyurildi.

Ramazon - oylarning sultonidir.

Uning eng katta fazilati unda Qur'on nozil bo'lganidir. Shuning uchun ham aziz bolajonlar, bu oyda vaqtimizning har bir lahzasidan unumli foydalanishimiz kerak. Ibodatlarni vaqtida bajarish, kechalari "Taroveh" namozlarida qoim bo'lish, Qur'on tilovati, suyukli Payg'ambarimiz Muhammad ﷺ ning sunnatlariga ergashish, xayru-ehson qilish, nochorlarga taom ulashish, atrofdagilar bilan, ayniqsa, ota-onamiz bilan go'zal muomalada bo'lish orqali Allohning muhabbatiga sazovor bo'lishimiz, savoblarimizni ko'paytirishimiz mumkin.

Ramazon oylarning afzalidir.

Atrofdagilarning hammasi bellashayo'tganga o'xshaydi. Bilasizmi shirintoylar, Rosululloh sollallohu alayhi vassallamning sahabalari ham yaxshi ishlarda musobaqalashishgan. Siz ham mukofoti Jannat bo'lgan Ramazon poygasida ishtirok etishga nima deysiz?

**"...VA SHU NARSA UCHUN MUSOBAQA  
QILUVCHILAR MUSOBAQA QILSINLAR."**

**MUTOFIFUN:26**



Diqqat bilan  
o'qing!



# Ro'za qanday ibodat?

**EY IYMON KELTIRGANLARI SIZLARDAN AVVALGILARGA FARZ QILINGANIDEK, SIZLARGA HAM RO'ZA FARZ QILINDI. SHOYADKI, TAQVODOR BO'L SALARINGIZ. SANOQLI KUNLAR SIZLARDAN KIM BEMOR YOKI MUSOFIR BO'LSA, BAS, SANOG'INI BOSHQA KUNLARDAN TUTADIR. UNI QIYNALIB TUTADIGANLAR ZIMMASIDA BIR MISKIN TAOMI - FIDYA BORDIR. KIM YAXSHILIKNI O'Z IXTIYORIILA QILSA, O'ZI UCHUN YAXSHIDIR. AGAR BILSANGIZ, RO'ZA TUTMOG'INGIZ SIZ UCHUN YAXSHIDIR.**

**BAQARA:183,184**

Bolajonlar, Ramazon oyida ro'za tutish - islom dinining besh asosidan biridir. Arab tilidagi "sovm" (ro'za) lug'atda "o'zni tiyish" degan ma'noni bildiradi. Xo'sh, nimadan o'zni tiyish deb o'ylaysiz? Tong otganidan, to quyosh botguncha niyat

bilan ovqat yemaslik, ichimlik ichmaslik "ro'za" deyiladi.

Aqli raso, so'lig'I joyida

bo'lgan har bir erkak va ayolning ro'za tutishi farz ya'ni shart qilingan.

Ro'za tutish oson ish emas. Shuning uchun ham,

Alloh taolo bemorlarga, safarda yurgan kishilarga, yoshi ulug' keksalarga yengilliklar bergen. Betob

kishilar tuzalganlaridan so'ng, musofir safardan qaytgandan so'ng necha kun tutmagan bo'lalar, o'shancha kun qazo ro'za tutadilar. Qariyalar tutolmagan har bir kunlari o'rniga

bir kamba'alni to'ydirishlari kerak bo'ladi. Buni "fidya berish" deyiladi. Masalan, Xolida buvi ancha keksayib qolganlar. Ular ro'za tutolmaydilar. Shu sababli, 30 kun ramazonda 30 kishiga taom ularshadilar.

Ovqat yemaslik!  
Hatto bir burda non ham...

Sahardan to shomgacha!


Fidya...

Men ham ro'za tutayotganimdan juda xursand man!

Suv ichmaslik! Hatto bir qultum ham...



# Bilimingizni sinab ko'ring



**XARFLARNI TO'G'RI QO'YIB ,  
RAMAZONGA OID SO'ZLARNI TOPING**



1. D A S M I J \_\_\_\_\_
2. A B A K A \_\_\_\_\_
3. L I M O S \_\_\_\_\_
4. N A Z O M A R \_\_\_\_\_
5. N U Q O R' \_\_\_\_\_
6. M O Y N I \_\_\_\_\_
7. S A H I D \_\_\_\_\_
8. L O L I H \_\_\_\_\_
9. N U S T A N \_\_\_\_\_
10. H A M D A M U M \_\_\_\_\_



# Nima uchun ro'za tutamiz?

**EY**

**IYMON KELTIRGANLARI! SIZLARDAN AVVALGILARGA FARZ**

**QILINGANIDEK, SIZLARGA HAM**

**RO'ZA FARZ QILINDI. SHOYADKI, TAQVODOR BO'L SALARINGIZ...**

**BAQARA:183**



Alloh taolo

Baqara surasida bizlarga taqvodor bo'lishimiz uchun  
ro'za farz qilinganini bayon qilmoqda.

Taqvorlar amallarida ehtiyojkor kishilardir.

Ular Allah buyurgan va Allah suygan  
ishlarni bajaradilar. Allahga yoqmaydigan ishlarni tark etadilar.

Shunday qilib

Allahning muhabbatini qozonadilar. Bu qanday bo'ladi? Keling, buni  
do'stimiz

Umar misolida ko'rib chiqamiz.

Umar 13 yoshda. U bu Ramazonda birinchi  
marta ro'za tutmoqda.

U yolg'iz qolganda,  
ovqat va ichimliklarni tatib ko'rish imkonibor  
paytda ham, hech narsa yemaydi. Shuningdek  
ro'zador kishi qilmasligi kerak bo'lgan boshqa  
ishlar: yolg'on gapirish, chaqimchilik  
qilish, yomon so'zlarni so'zlash, boshqalarni  
hafa qilish, o'g'rilik kabilarni ham qilmaydi.

Chunki Umar Allah uni ko'rib,  
kuzatib turganini, bu amallar Allahga  
yoqmasligini juda yaxshi biladi.

Salom Bolajonlar!  
Mening ismim Umar



Diqqat bilan  
o'qing!



# Töpshiriglarga nima deysiz?

**SOFIYA VA ABDURAHMONGA RO'ZALARI OCHILIB KETGAN YOKI  
OCHILMAGANLIGINI BILISHDA YORDAM BERING. JAVOBINGIZNI  
PASTDAGI QATORLARGA SABABI BILAN YOZING.**



Assalomu alaykum! Mening ismim Sofiya va menga yordamingiz kerak! Men ro'za tutayotgan edim... va oshxonaga borib biroz suv ichdim! Ramazon oyi ekanligini unutibman!! Mening ro'zam ochilib ketganmi? Ro'zamni davom ettirsam bo'ladimi hozir? Yoki Ramazon oyi tugagandan keyin qazosini tutishim kerakmi?

Javob:

Assalomu alaykum! Mening ismim Abdurahmon. Menga yordam bera olasizmi? Men bu yildan birinchi marta ro'za tutishni boshladim va kun bo'y qornim ochib qolyapti!! Hech kim qaramay turganida muzlatkich eshigini ochib shirinligimdan bir bo'lak tishladim... shunda onam kelib qolsa bo'ladimi!! Onamni mendan jahli chiqdi va shirinlikni qolganini yeyishga ruxsat bermadi! Onamni aytishicha, meni ro'zam ochilib ketibdi, shu rostmi? Qazosini tutib berishim kerakmi?



Javob:



# Nima uchun niyat qilamiz?

**NABIY ﷺ DEDILAR:**

**“ALBATTA, AMALLAR NIYATLARGA  
BOG’LIQDIR...”  
BESHOVLARI RIVOYAT QILISHGAN**



Ramazon yaxshi amallarni bajarib, savoblarimizni ko’paytirishimiz uchun bizlarga berilgan imkondir. Birgina niyatimiz bilan bizga beriladigan mukofotlarni qo’lga kiritishimiz, yoki ulardan ayrilib qolishimiz mumkin. Qanday qilib deysizmi? Ro’za Alloh taologa muhabbatimiz belgisi sifatida tutiladi, yaxshi ishlar Alloh buyurgani uchun qilinadi, yomon amallar esa Alloh taolo man etgani uchun qilinmaydi. Aslo boshqa niyatlarda emas... Boshqa niyat bilan qilsak savobga erishmaymiz. Bu qanday bo’ladi? Biror ish qilayotganingizda yaxshi va to’g’ri niyat qiling!

Masalan:

**Noto’g’ri niyat:** Siz onangizga ko’chaga chiqishga ruxsat olish niyatida yordam berasiz. ✗

**To’g’ri niyat:** Siz onangizga u sizdan rozi bo’lib savobga ega bo’lishingiz uchun yordam berasiz. ✓

**Noto’g’ri niyat:** Siz hamma sizni “Masha Alloh mana bu bolani qarang, qanday yaxshi musulmon ekan-a, hozirdan ro’za tutyapti” deyishlarini istab ro’za tutasiz. ✗

**To’g’ri niyat:** Siz Alloh sizdan xursand bo’lishi uchun va savob umidida ro’za tutasiz. ✓

**Noto’g’ri niyat:** Siz uy hayvoningiz bilan vaqtingizni chog’ o’tkazish niyatida o’ynaysiz. ✗

**To’g’ri niyat:** Siz uy hayvoningiz bilan Alloh hayvonlar bilan yaxshi muomala qilishga buyurgani uchun o’ynaysiz, ularga g’amxo’rlik qilib, vaqtida taom berasiz. ✓

Diqqat bilan o’qing!





# Topshiriq



**QUYIDAGI NIYATLAR TO'G'RIMI? TO'G'RI/NOTO'G'RI DEGAN  
YOZUVLARDAN BIRINI  
DUMALOQ ICHIGA OLING. PASTDAGI QATORLARGA JAVOBINGIZNI  
TUSHUNTIRIB YOZING.**

To'g'ri/Noto'g'ri \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

1. Lola unga  
hamma havas  
qilib, "Qaranglar, bu qiz maktabdagi  
eng a'luchi qiz", -  
deyishlari uchun yaxshi o'qiydi.

2. Nuriddin  
Ramazon oyida  
ko'p savob yig'ish uchun ro'za  
tutyapti.

To'g'ri/Noto'g'ri \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

**QUYIDAGI QATORLARGA  
RAMAZON OYIDA QILGAN YOKI QILMOQCHI BO'LGAN 3TA YAXSHI  
ISHNI VA BU ISHLARNI QILISHDAGI NIYATINGIZNI YOZING.**

**BIRINCHI YAXSHI ISH**

Yaxshi ish: \_\_\_\_\_  
Niyatim: \_\_\_\_\_



**IKKINCHI YAXSHI ISH**

Yaxshi ish: \_\_\_\_\_  
Niyatim: \_\_\_\_\_



**UCHINCHI YAXSHI ISH**

Yaxshi ish: \_\_\_\_\_  
Niyatim: \_\_\_\_\_

# Ro'zaning mukafati

**ROSULULLOH ﷺ DEDILAR:**

**“...RO'ZADORNING IKKI XURSANDCHILIGI**

**BOR: IFTOR QILGANIDA XURSAND BO'LADI VA ROBBIGA RO'BARO'**

**BO'LGANIDA RO'ZASI**

**SABABLI XURSAND BO'LADI.”**

**BUXORIY VA MUSLIM RIVOYATI**

Ro'zador kishi garchi

oshqozoni ochlikdan g'uldirab ketayotgan bo'lsa ham o'zini taomdan tiyadi, tomog'i qurib, chanqab ketsa ham o'zini suvdan tiyadi. Buning barchasi Allohni rozi qilish uchundir. Shuning uchun ham yuqoridagi hadisda,

Payg'ambarimiz ﷺ

ro'zador uchun ikki xursandchilik borligini aytmoqdalar.

Birinchi xursandchiligi-suv ichib og'zini ochganda his qiladigan rohatdir. Darvoqe', bolalar, ro'za tutib o'zingizni ochlik bilan sinaganingizda, yeyishga na taomi, na bir burda noni bo'limgan qanchadan-qancha bolalarning borligi haqida tafakkur qilasiz, Allohga ko'p shukrona va raxmatlar aytasiz, oddiygina suvning naqadar shirinligini iftorda yana bir bor anglab yetasiz!

Hadisda aytildigan ikkinchi xursandchilik esa, Allohga yo'liqqanda bo'ladi. Biz hamma amallarimizni o'zimiz uchun bajaramiz. Jannatga erishishimiz uchun bajaramiz. Faqatgina, ro'zani Alloh uchun tutamiz. Tasavvur qilish uchun aytish mumkinki, bu

huddi bizning dunyomizda mamlakat podshohining shaxsan o'zidan mukofot olgандек. Ammo oxiratda butun olamlar podshohidan mukofot olish qanday ulug' baxt-a, bolajonlar?!

## MUKOFOTLAR

- ★ “Kim Ramazon oyi ro'zasini iymon va ixlos bilan tutsa, uning oldingi gunohlari kechiriladi”
- ★ Ro'zadorning mukofotini Allohnинг O'zi beradi.
- ★ Ro'zadorlarning og'iz ochgunlarigacha qilgan duolari ijobat qilinadi.
- ★ Ro'za do'zaxdan saqlaydigan qalqondir.
- ★ Jannatning faqat ro'zadorlarga atalgan “Rayyon” deb nomlanadigan eshigidan kiradilar.

Diqqat bilan  
o'qing!



# Topshiriq



## RAMAZON OYIDA HAR

## KUNI QILISH UCHUN 7TA OSON SAVOB AMALLARNI O'ZINGIZ UCHUN O'YLAB TOPING



(masalan, har kuni onangizga yordam berish).



InshaALLOH

Ramazon oyidan keyin o'sha savob amallar sizga odatga  
aylanadi.




Buning uchun duo qiling va o'sha amallarni bajarishda  
bardavom bo'ling!



## **QUYIDAGI QATORLARGA ULARNI YOZING.**



1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_
6. \_\_\_\_\_
7. \_\_\_\_\_



Aziz bolajonlar!

Xohlasangiz bu sahifani kesib ko'zingizga ko'rindigan joyga  
yopishtirib qo'ysangiz bo'ladi

# Ramazonda ga'zal odatlар

**BOLAJONLAR, RAMAZON OYIDA ODATDAGIDAN HAM  
ODOBLIROQ BOLA BO'LISHINGIZ KERAK.  
QUYIDAGI HADIS BUNGA YORQIN MISOLDIR.**

**ROSULULLOH ﷺ DEDILAR:**

**"RO'ZA (DO'ZAX O'TIDAN SAQLOVCHI) QALQONDIR.**

**RO'ZA TUTGAN KISHI YOMON SO'ZLAR AYTMASIN. QO'POLLIK QILMASIN.**

**BIROR KISHI U BILAN URISHSA YOKI HAQORAT QILSA, IKKI MARTA "MEN  
RO'ZADORMAN" DESIN..."**

**BUXORIY RIVOVATI**

Haqiqiy ro'zador bo'lismish uchun nafaqat yemoq va ichmoqni tark etish kerak, balki faqat yaxshi so'zlarni so'zlash hamda Allohni ko'p eslash ("Subhanalloh", "Alhamdulillah", "Allohu akbar", "Astagfirulloh" kabi zikrlarni aytib yurish orqali), atrofdagilar bilan yaxshi muomala qilish kerak bo'ladi. Shunday ro'zador Allohning mukofotiga to'liq erishadi, inshaaAlloh!

Ammo, ro'zador yemasa, ichmasa, lekin yolg'on so'zlasa, birovlarga qo'pollik qilsa, chaqimchi bo'lsa, urishsa, tortishsa, uning ro'zasi qabul bo'lmaydi. Ochlik bilan o'zini qiynagani qoladi, xolos. Shuning uchun ham bu muborak oy bizni tarbiyalaydi, o'zimizni nazorat qilishga o'rgatadi.

Ramazonni go'zal odob va muloyimlik bilan o'tkazaylik, bolajonlar.

## **GO'ZAL ODATLARNI PAYG'AMBARIMIZ ﷺ DAN O'RGANAYLIK:**

"O'rtalaringizda muhabbat paydo bo'lishi uchun salomni oshkora beringiz va bir-biringizga jahl qilishdan saqlaningiz"


«Birodarining yuziga tabassum bilan boqishing ham sadaqadir»

«Sizlarning yaxshilaringiz - axloqi yoqimli bo'lganlaringizdir»

«Bir musulmonning xulqi yaxshi bo'lsa, butun kecha ibodat qilgan musulmonning darajasiga teng bo'ladi»

Imom al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad" kitobidan

Diqqat bilan o'qing!





# *Yaxshi odatlаримизни кў'пайтирамиз!*



**MEN MULOYIM  
SO'ZLASHAMAN!**



**MEN DOIM  
TABASSUM QILAMANI!**



**BOSHQALARGA  
YORDAM BERAMANI!**



**JAZAKALLOHU XOYRI  
MASHA ALLOH!**



**TANIGAN VA  
TANIMAGANLARIMGA SALOM  
BERAMANI!**



**KAYFIYATIM BO'LMASA  
HAM YAXSHILIK  
QILAVERAMANI!**



**KIMNIDIR HAFA QILIB  
QO'YSAM, ALBATTA  
UZR SO'RAYMAN!**



**BOR NARSALARIMNI  
BO'LISHAMAN!**



**ILTIMOS SO'ZINI  
KO'PAYTRAMAN!**



Aziz bolajonlar!

Agar siz yuqoridagi yaxshi odatlarga о'ргансангиз, оға-онангиз ко'крак нishonlarini kesib, sizga beradilar. Hammasini то'plang!



# Har kimdan minnatdor bo'lish!



عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ  
لَا يَشْكُرُ اللَّهَ مَنْ لَا يَشْكُرُ النَّاسَ

**ABU HURAYRA ROZIYALLOHU**

**ANHUDAN RIVOVAT QILINADI: ROSULULLOH ﷺ DEDILAR:**

**"KIMKI INSONLARGA SHUKR QILMASA (YA'NI MINNATDOR BO'LMASA)**

**ALLOHGA SHUKR QILMAYDI" ABU LAYS SAMARQANDIY. "BO'STONUL ORIFIYN"**

**HADISNI E'TIBOR BILAN O'QIB CHIQING VA QUYIDAGI**

**SAVOLLARGA JAVOB BERING:**



1. Biz ega bo'lgan ne'matlarni bizga kim beradi?

---



---



---



2. Faqatgina Allohdan minnatdor bo'lishning o'zi yetarlimi?

---



---



---



3. Agar ne'matlarni berguvchi Zo't Yagona Alloh bo'lsa, nega odamlardan ham minnatdor bo'lishimiz kerak?

---



---



---

Bilasizmi?



1. Rosululloh ﷺ bizga yaxshilik qilgan kishiga nima deyishni o'rnatganlar?

2. Allohga shukronamizni bildirish uchun qaysi duoni o'qiyimiz?

---



---



**Ajoyib g'oya!**







Keling kimdan minnatdor bo'lishingiz kerak ekanligi keyingi sahifadagi topshiriq yordamida eslab ko'ring



Tópshiriq

**MINNATDOR**

**INSONLARINGIZ ISMINI VA MINNATDORCHILIGINGIZ**  
**SABABLARINI YOZING**



# Saharlik



NABIY ﷺ DEDILAR:

**"SAHARLIK QILINGLAR, SAHARLIKDA BARAKA BOR"**  
**BUXORIY VA MUSLIM RIVOYATI**



## SAHARLIK O'ZI NIMA BOLAJONLAR?

Saharlik - bamdod namozigacha bo'lgan vaqtida bir oz ovqat yeb olishdir.

Rosululloh ﷺ dedilar:

"Saharlik yemagini lozim tutinglar, chunki u muborak yemakdir".  
"Xurmo mo'min uchun qanday yaxshi saharlik!"



## KELING, ENDI BIRGA SAHARLIKDAGI FOYDALARNI KO'RIB CHIQAMIZ:

1. Saharlik bizga kun davomida quvvat beradi. Namoz o'qishimiz, qur'on tilovat qilishimiz, Allohnini ko'p eslab zikrlar aytishimizga kuch bo'ladi. Biz juda och bo'lsak, ovqatdan boshqa narsani o'ylamay faqat qiynalib yuramiz. Yaxshi ishlarimiz uchun kuchimiz yetmay dangasa bo'lib qolamiz.
2. Qorni juda och odam qaysar va tajang bo'lib qoladi. Bunday paytda yaqinlarini hafa qilib qo'yishi ham mumkin. Saharlik esa, kayfiyatni ko'taradi. Qorni to'q kishi esa, odamlarga shirin muomala qiladi
3. Saharlik qilgan odam Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam qilganishlariga ya'ni sunnatga ergashgan bo'ladi. Bu esa juda katta savob, bolalar.
4. Odatda saharlik tunning oxirlab borayotgan qismida qilinadi. Bu vaqt esa duolar qabul bo'ladigan, tavbalar qabul qilinadigan vaqtlardan biridir. Saharlik bahonasida zikr, duo, Qur'on qiroati va tungi namoz - tahajjud namozlarni ham o'qib olishimiz mumkin.
5. Saharlik qiluvchilarga Alloh va Uning farishtalari salovotlar aytadilar.



Aziz bolajonlar!

Saharlik duosini yodlab oldingizmi?

# Iftorlik



**PAYG'AMBARIMIZ ﷺ DEDILAR:**

**"QACHON BIRINGIZ IFTOR QILSANGIZ, OG'ZINI XURMO BILAN  
OCHSIN, CHUNKI U BARAKADIR. KIM TOPMASA, SUV BILAN OCHSIN, CHUNKI U POKLOVCHIDIR."  
SUNAN EGALARI RIVOVAT QILGANLAR.**

## IFTORLIK NIMA?

Quyosh botib, shom namozi vaqtি kirkach, bir oz taom bilan ro'zamizni to'xtatishimiz iftorlikdir, bolajonlar.

### **KELING ENDI IFTORLIKDA NIMALARGA E'TIBOR BERISHIMIZ HAQIDA GAPLASHAMIZ:**

1. Iftorgacha ko'p duo qiling! Ro'zadorning og'iz ochishidan oldingi duosi qabul bo'ladi. Hadisda aytilganidek, "Iftor paytida ro'zadorning mustajob duosi bor."
2. Onajoningizga yordam bering! Bolalar ba'zan, iftorlikka yaqin vaqt juda sekin o'tayotganga o'xshaydi. Ha, bu paytda ro'zador ancha charchab, kuchsizlanib qoladi. Va tezroq og'zini ochishni istab qoladi. Shuning uchun ham vaqt juda sekin o'tayotganga o'xshaydi. Lekin, siz bu paytda onangizga iftor dasurxonini tayyorlashga yordamlashib yuborsangiz vaqt o'tganini ham sezmay qolasiz. Ham onajoningiz sizdam xursand bo'ladilar. Siz yana ham ko'p savobga erishasiz.
3. Oilaviy duo qiling! Iftorlik dasurxonini ertaroq tayyorlab, butun oilangiz bilan ko'proq duo qilishga harakat qiling!
4. Shom azoni aytilgach iftorlik qiling!
5. Iftorlikni tezlating! Hadisda aytilganidek, "Modomiki iftorni tez qilishar ekan, kishilar yaxshilikda bo'lurlar." Qisqagina iftorlik qilib shom namoziga shoshiling!
6. Og'iz ochganingizda sog'lom ovqatlanishga e'tibor bering! Suyukli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam o'rnatganlaridek og'zimizni xurmo yoki suv bilan ochishimiz sunnat amaldir.
7. Iftorlikka tayyorlagan mazali taomlaringizni qo'shnilaringizga ulashing!
8. Kambag'al va nochor kishilarga iftorlik berish ham juda katta savob! "Ro'zadorni to'ydirgan kishi ro'za tutgan kishidek savob oladi"

Diqqat bilan  
o'qing!



# Topshiriq



**QUYIDAGI TO'RTBURCHAKKA, OVQATLANAYOTGANDA AMAL QILISH KERAK  
BO'LGAN 5TA SUNNATNI YOZING VA UNI BO'YANG.**

## OVQATLANISHDAGI 5TA SUNNAT

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ tayyorladi



**Aziz bolajonlar!**

To'rtburchakni qirqib olib, hamma ko'rib eslab turishi uchun va savob olishi uchun iftor stolingizga yoki stolingizga yoki hammaga ko'rindigan biror joyga yopishtirib qo'ying. Siz albatta boshqalarga ham eslatganingiz uchun eng ko'p savob olasiz!



Burchakka  
isingizni yozing.



barcha ishlarni chiroyli ko'rinishda qilishdir!

**"ALLOH SENGA YAXSHILIK QILGANIDEK, SEN HAM  
YAXSHILIK QIL"**  
**QASOS : 77**



Bolajonlar, atrofingizga qarasangiz, kimdir juda boy-badavlat, kimdir esa kambag'al, faqir ekanligini ko'rasiz. Boy odamlarga Alloh boylik berishining sababi-imtihondir. Boy kishi "Meni Alloh boshqalarga yordam berishim uchun boy qildi", - deb o'z molidan, pulidan ularishi kerak. Shunda Alloh bu sahiy kishidan hursand bo'lib, unga yana ham ko'p boylik beradi. O'zidagi bor narsani boshqalar bilan baham ko'rishi Ehsondir. Alloh kishiga ehsan qilib o'z ne'matlaarini bergani uchun, u ham boshqalarga shu berilganlardan ehsan qilishi, ularishi kerak.

Faqir kishilarni ham Alloh sinaydi. "Nochor bo'lsa ham Allohga shukr qiladimi, yoki nolib, hafa bo'lib yashaydimi? Kam bo'lsa ham halol, to'g'ri yo'l bilan pul topadimi, yoki boshqalarni aldab, o'g'rilik qilib boylikka erishmoqchi bo'ladimi?", - deb ularni imtihon qiladi. Agar kambag'al kishi Allohnijuda yaxshi ko'rsa, qiyngan kunlarida ham, och qolgan vaqtlarida ham Allohga shukr qiladi va hafa bo'lmaydi.

Sevimli Payg'ambarimiz ﷺ ham faqir hayot kechirganlarini eslaydi, jannatga kambag'al mo'min bandalar boy mo'minlardan avval kirishini o'ylaydi va Allohdan rozi bo'ladi. Shuyo'l bilan Allohnning muhabbatiga erishadi.



**BOLAJONLAR, BALKI SIZ "MEN HALI KICHKINA BO'LSAM, QANDAY QILIB EHSON, SADAQA QILA OLAMAN?" - DEYAYOTGANDIRSIZ**

Yaxshilikning kattasiyu kichigi bo'lmaydi. Bizning islom dinimiz juda oson va mukammal din. Dinimiz ehsonni har kim, kattayukichik, boyu, kambag'al har qachon qila olishini o'rgatadi.

**Masalan:**

1. Ota-onangizga yordam berishingiz, ularni hursand qilishingiz, duolaringizda eslashingiz- **EHSONDIR!**
2. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallamga ergashish- **EHSONDIR!**
3. Boshqalarga tabassum qilishingiz ham sadaqa, **EHSONDIR!**
4. Qarindoshlaringizga, qo'shnilaringizga, do'stlaringizga yordam bera olishingiz ham **EHSONDIR!**
5. Boringiz bilan bo'lisingiz- **EHSONDIR!**
6. Sizni hafa qilganlarni kechira olishingiz ham **EHSONDIR!**



# Topshiriq



Bolajonlar, bizning suyukli Payg'ambarimiz ﷺ ni ko'rib ularga ishonib ergashgan musulmonlar sahobalar deyiladi. Ular juda mard, aqli, sodiq kishilar bo'lganlar. Sahobalarning ham oralarida juda boy-badavlat kishilar bo'lgan. Ular o'zlarining sahiyiliklari bilan Allohni va Rosululloh ﷺ ni hursand qilganlar.

bilasizmi?



## **SIZGA BERMOQCHI BO'LGAN NAVBATDAGI TOPSHIRIG'IMIZ TIRIKLIKLERIDA JANNAT BASHORATI BERILGAN IKKI BUYUK SAHOBIY USMON IBN AFFON VA ABDUROHMAN IBN AVF R.A.LAR HAQIDADIR. OTA-ONANGIZ BILAN ULARNING HAYOTLARINI O'RGANIB CHIQING VA SHU JADVALNI TO'LDIRING.**

FARISHTALAR HAYO QILGAN USMON IBN AFFON R.A.

Islamni necha yoshlarida qabul qilganlar?

Payg'ambarimizga qanday qarindoshliklaribor?

Hayolari qanday edi?

Dinimizga fidoiyiliklari

Sahiyliliklari

Nechanchi halifa bo'lganlar?

JANNATGA EMAKLAB KIRADIGAN ABDUROHMAN IBN AVF R.A.

Islamni necha yoshlarida qabul qilganlar?

Onalari kim bo'lganlar?

Madinadagi birodarları

Dinimizga fidoiyiliklari

Sahiyliliklari

Aziz bolajonlar!

Siz ulardan qay biriga o'xshashni xohlardingiz?




# Taroveh

**ROSULULLOH ﷺ DEDILAR:**

**“ALBATTA, INSON QACHONKI, IMOMI BILAN BIRGA U QAYTGUNCHА  
NAMOZDA QOIM BO’LSA, ALLOH UNGA KECHASINING QOLGANINI (QOIM  
O’TAKZGAN DEB) SAVOB YOZADI.”**

**TERMIZIY RIVOVATI**



Taroveh bu

faqat Ramazonda hufton namozidan so’ng o’qiladigan namozdir. Namozning har to’rt rakaatidan so’ng to’xtab bir oz dam olingani uchun “taroveh”-“oram oldirish”, “dam berish” deb nomlangan. Taroveh namozi majburiy namoz emas.

U ta’kidlangan sunnat amaldir. Lekin uni o’qish bilan muslimmonlar Ramazon oyida ulkan mukofotlarga erishadilar. Taroveh namozi jamoat ya’ni ko’pchilik bilan masjidda imom bilan o’qiladi. Ayollar va qizlar esa bu namozni uyda o’qiydilar. Taroveh uzoq o’qiladigan namozdir. Chunki tarovehda

Qur’oni Karim bir bora xatm qilinadi ya’ni to’liq o’qib tugatiladi.

Taroveh namozini o’tirib o’qish ham mumkin. Ammo, turib o’qigan undan-da yaxshiroqdir!

Diqqat bilan  
o’qing!



# Bu yil Ramazonda masjidlar bo'sh...

## ROSULULLOH ﷺ DEDILAR:

**"MUSULMON KISHIGA YETADIRGAN HAR BIR MASHAQQAT – DARD, TASHVISH,  
QAYG'U, AZIYAT YOKI NOCHORLIK VA HATTO (BADAÑIGA) KIRGAN  
TIKAN HAM ALLOH TAOLO DARGOHIDA UNING GUNOHLARIGA  
KAFFORAT BO'LADI!» – DEDILAR"**

## BUXORIY RIVOYATI

BOLAJONLAR BU YILGI RAMAZON HAR YILGIDAN-DA O'ZGACHA KELMOQDA...

Nega bu yil tarovehlarni masjidda o'qimaymiz deyayotgan bo'lsangiz kerak-a?

Nega juma namozlarito'xtatildi?

Nega maktabga bormay uydan ta'lim olish yo'lga qo'yildi?

Nega ko'pgina ota-onalarimiz uyda o'tirib masofaviy ishlashga majbur bo'lmoqdalar?

Nega ko'chalarda avtomobillar qatnovi to'xtagan?

Nega ko'pgina oshxonalar, o'yingohlar yopildi?

Albatta, bu savollarga javobni juda yaxshi bilasiz! Chunki siz juda zukko bolajonsiz!

Hozir butun dunyoda COVID-19 raqamli korona virus kasalligitezlik bilan tarqalmoqda. Davlatimiz rahbarlari, shifokorlarimiz bizning sog'lig'imizni o'ylab hammani uyda qolishini so'ramoqdalar.

Nega bunday bo'lyapti?

Sog'liq Allohning bizga bergen ulkan ne'mati va sinovidir. Biz yashayotgan dunyo – imtihon maydonidir.

Agar Alloh taolo kasallikni yubormaganida edi, insonlar sog'liqning qadriga yetmagan bo'lar edilar. Hozir uyda o'tirib ko'p narsalar bizga ne'mat qilib berilganini, uning qadriga vaqtida yetmaganimizni tushunmoqdamiz. Yana,

koronavirus kasalligi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam o'rgatib ketgan ko'pgina sunnatlarni eslab, o'rganib, ularga amal qilishimiz zarurligini uqtirmoqda. Hozirgi holatimizda ikki tomonidan sinalyapmiz, bolajonlar:



1. Kasallik yetganda sabr qilishimiz,  
kasallanmaslik va boshqalarga yuqtirmaslik uchun ehtiyoj  
choralarini ko'rishimiz va bu kasallikka chalinganlarga shifo so'rab Allohga  
yolborishimiz zarurligini unutmashimiz kerak!



### 2. Uyda o'tirib bo'sh vaqtimizni

to'g'ri sarflashimiz kerakligini yodda tutishimiz muhim! Balki bu siz nimadir o'rganishingiz, namozlaringizni  
vaqtida o'qishingiz, oila a'zolaringizga ko'proq yordam berishingiz uchun berilgan imkondir?!

Qiyomat kuni bizdan bo'sh vaqtimizni qanday sarflaganimiz so'ralganida, yaxshi  
ishlar bilan o'tkazganligimizni aytish qanday yoqimli!



Bu yilgi Ramazonda taroveh namozlarini uyda o'qiyimiz, xatmi Qur'onlar ham uyda  
bo'ladi... Bunda ham Allohning ulug' hikmati borligiga ishonamiz! Duo qilaylik,  
masjidlar hayit namozlari uchun ochilsin, musulmon aka-ukalarimiz,  
do'stlarimiz bilan hayit namozini o'qish, ayyom bilan qutlab,  
bir-birimizni bag'rimizga bosish nasib qilsin! Amin!



# Islamning 5 asosi

## UMAR R.A. DAN RIVOYAT

**QILINADI: "RASULULLOH ﷺ : "ISLOM 5 NARSAGA BINO**

**QILINGAN: "ALLOHDAN O'ZGA ILOH YO'Q, MUHAMMAD ALLOHNING RASULIDIR", DEB GUVOHLIK BERISH, NAMOZN TO'KIS ADO ETISH, ZAKOT BERISH, HAJ QILISH VA RAMAZON RO'ZASINI TUTISH", DEDILAR". (BUXORIY VA MUSLIM RIVOYAT QILISHGAN).**

## IYMON

"Laa ilaha illalloh, Muhammadur Rosululloh", ma'nosi: "ALLOHdan o'zga iloh yo'q va Muhammad ALLOHning rasulidir", deb til bilan aytib dil bilan tasdiqlash. Demak, bolajonlar, musulmon avvalo iymon kalimasini aytishi kerak ekan.

## NAMOZ

"...Albattam namoz mo'minlarga vaqtida farz qilingandir"  
(Niso surasi, 103-oyat)

ALLOH taolo bizlarga har kuni **5 vaqt namoz** o'qishni farz qildi. Ular **bomdod, peshin, asr, shom** va **xufton** namozlaridir. ALLOH taologa eng sevimli amallarimizdan biri bu namozni vaqtida o'qishligimizdir. Qiyomatda ham avvalo namozning hisob kitobi bo'ladi. Shuning uchun, bolajonlar, siz doimo namozlaringizni vaqtida va go'zal shaklda ado etishingiz kerak. Buning uchun tahorat qilishni va namoz o'qishni o'rghaning. Bunda sizga ota-onangiz yordam berishlari mumkin.

## ZAKOT

"Namozni to'kis ado qiling, zakot bering va ruku qiluvchilar bilan birga ruku qiling"  
(Baqara surasi, 43-oyat)

Zakot bu ma'lum miqdorda boyligi bor insonlarga farz qilingan sadaqaning bir ko'rinishidir. ALLOH taolo O'zi istagan ba'zi insonlarni boy qiladi, ba'zilarini esa kambag'al qiladi. Boy insonlar bizni ALLOH taolo sevgani uchun bizni boy qildi, deb o'yamasliklari lozim. ALLOH taolo ularni sinash uchun boy qildi. Qani, bandam men bergan boylikdan zakot berarmikan, ehson qilarmikan, sadaqa berarmikan, deya sinash uchun boy qildi. Bu sinovdan o'tish uchun boy insonlar saxiy bo'lishlari kerak va inshaaALLOH buning uchun ALLOH taolo ularga behisob ajr beradi. Kambag'al insonlar ALLOH taolo meni yomon ko'rgani uchun kambag'al qildi, deya o'yashlari noto'g'ridir. Kambag'allik ham xuddi boylik kabi sinovdir. Qani, bu inson kambag'alligiga sabr qilarmikan, bor ne'matlarga shukr qilarmikan, degan sinov bu. Agar kambag'al inson shukr qilsa, sabr qilsa, ALLOH taolo unga ham behisob ajr beradi. Barcha insonlar qardoshdirlar. Shuning uchun qurbimiz yetsa moliyaviy yordam-zakot berish bizga farz qilingandir, aziz bolajonlar, buni unutmaylik.

## RAMAZON RO'ZASINI TUTISH.

Bolajonlar, biz bu haqda sizlar bilan Ramazon avvalida bat afsil gaplashdik.

## HAJ QILISH

"ALLOH uchun haj va umrani tugal ado eting..."  
(Baqara surasi, 196-oyat)

Qurbi yetgan insonlarga Makka shahriga borib, Ka'bani tavof qilish farz qilindi va uni haj deb ataladi. Hajga Qurbon hayitidan avval boriladi va hojilar qurbanliklarini haj davomida qilishadi. Ka'ba bu bizning qiblamiz bo'lgan muqaddas makondir. U yerni bir bor ko'rish barcha musulmonlarning orzularidir.



Aziz bolajonlar!

Iyemoning shartlari haqida keyingi sahifada gaplashamiz.

# Iyman



Ajoyib g'oya!

Islom daraxtini  
sizham yasab  
ko'ring

## SHARTI 6 TA

### AGAR ISLOMNI DARAXT DEB OLSAK, UNING ILDIZLARI IYMONDIR



## IYMON

Allohnig  
birligiga  
ishonish

Allohnig  
farishtalariga  
ishonish

Allohnig  
kitoblariga  
ishonish

Allohnig  
payg' ambarlariga  
ishonish

Oxirat kuniga  
ishonish

Taqdirga  
ishonish



# Olamlarga rahmat payg' ambar...

Sevimli payg' ambarimiz ﷺ milodiy 571 yili-Fil yilida  
(keying sahifada bat afsil o'qing) Makkada tug'ilganlar. Otalarining ismi  
Abdulloh ibn Abdulmutollib ibn Hoshim ibn Abdumannof,  
onalarining ismi esa Omina binti Vahb az Zuhriya bo'lgan.

Payg' ambarimiz ﷺ ismlarini bobolari Abdulmattalib qo'yganlar. Bu ismnning ma'nosi  
to'xtovsiz, tinimsiz, doim maqtaladigan deganidir.

Necha asrlar o'tsa ham ularning ismlari faqat va faqat maqtov bilan tilga olinadi.  
Bolajonlar, biz payg' ambarimiz ﷺ haqida eshitganimizda ularga salom va salovatlar yo'llashimiz  
kerak. Bu bizning muslimmon ummat sifatidagi burchimizdir. Aks holda gunohkor bo'lib qolamiz.

Rosululloh ﷺ yoshlikdan juda halol, to'g'ri so'z, pokiza inson bo'lganlar.  
Biror marta yolg'on so'zlamaganlar. Shuning uchun ham odamlar ularni  
“Amin” rostgo'y deb ataganlar.

U zot ﷺ qirq yoshga yetganlarida Alloh tomonidan payg' ambarlik berildi. Jabroil farishta  
Alloh tomonidan yetkazib kelgan vahiy (amr-farmonlar)ni Janobi Payg' ambarimiz barcha  
odamlarga yetkazib, ularni to'g'ri yo'lga, Allohnинг buyruqlarini bajarishga  
chaqira boshladilar. Ana shu to'g'ri yo'lga chorlash, Allohnи tanitish «din»  
deyiladi. Bizning dinimiz esa «Islom dini» deb ataladi.  
Islom dinidagi kishilar muslimon deyiladi.

Ammo yomon, gunoh ishlarga o'rganib qolgan, haykallarni  
o'zlariga hudo qilib olgan Makkadagi Islom dushmanlari Islom dinining  
tarqalishiga qarshi bo'lganlar va Payg' ambarimiz ﷺ ning aytaganlariga ko'nishmadni.  
Aksincha, o'n uch yil mobaynida u kishiga ochiqdan-ochiq dushmanlik qilishdi. Muslimonlar  
boshiga hech kim ko'rmagan azob-uqubatlarni solishdi. Hatto u zo'tni o'ldirishga ham  
urinib ko'rishdi. Nihoyat Allohnинг buyrug'i bilan muslimonlar Makka shahridan

Madina shahriga ko'chishdi, Bu ko'chish arabchada «Hijrat» deyiladi.

Muslimonlarning hijriy yil degani ana shu voqeadan olingan. Janobi

Payg' ambarimiz ﷺ Madinada ham o'n yil tinmay  
ishladilar. Allohnинг buyruqlarini yoyib, Unga xizmat qildilar, odamlarni  
haqorat, zulm, nodonlik, haqsizlik, axloqsizliklardan qaytardilar. Dunyoga ilm,  
adolat, saodat nurlarini tarqatdilar. 63 yoshlarida betoblanib Madina shahrida  
vafot etdilar. Hozir qabrlari o'sha yerda, o'zları qurdirgan masjid ichiga  
joylashgan. Bizning Hazrati Payg' ambarimiz ana shunday ajoyib inson bo'lganlar.  
Shuning uchun biz doimo u kishiga hurmat-ehtirom ko'rsatamiz. Aytgan hamma  
buyruqlarini bajarishga harakat qilamiz. «Bu ishni qilmang» degan bo'lsalar,  
aslo yaqin yo'lamaymiz. Ana shu harakatlarimiz Payg' ambarimiz sunnatlariga  
rioya etganimiz bo'ladi. Keling, qo'llarimizni ochib bir duo qilaylik:

«Hamamizga Muhammad alayhissalom sunnatlariga, ya'ni ko'rsatmalariga rioya  
etish nasib etsin, Alloh taolo O'zining to'g'ri yo'lidan adash tirmasini!»





# Topshiriq

**QUYIDAGI JADVALDAN PAYG'AMBARIMIZ SOLLALLOHU ALAYHI VASSALLAM  
OILA A'ZOLARIDAN 13 KISHINING ISMLARINI TOPING! Ular  
ROSULULLOH ﷺ GA KIM BO'LISHLARINI AYTIB BERING!**



|   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| R | U | Q | I | Y | A | M | L | O | P | N | C | F | A | E |
| Q | R | F | A | S | B | U | P | A | A | X | Z | N | P | H |
| A | J | O | X | A | D | I | J | A | H | J | L | O | A | J |
| E | R | T | A | K | U | F | M | I | N | J | A | M | T | A |
| L | A | B | D | U | L | M | U | T | T | A | L | I | B | B |
| O | B | S | A | N | L | V | A | F | O | F | I | N | A | M |
| T | U | X | A | F | O | T | I | M | A | A | S | A | L | I |
| I | T | G | U | L | H | A | M | Z | A | R | Q | Q | Y | S |
| N | O | N | F | I | H | A | J | A | R | A | L | O | A | H |
| A | L | E | R | U | K | I | N | Y | H | Z | A | D | H | O |
| O | I | S | H | A | V | F | I | N | O | D | I | A | P | H |
| Y | B | S | N | U | Y | I | F | A | B | B | O | S | O | M |
| B | C | M | J | O | M | S | H | B | A | U | S | I | B | A |




Sevikli Payg'ambarimiz ﷺ ning axloqlari haqida ma'lumotlarni o'rganib, yozib chiqing.

- 1.Ovozları
- 2.So'zlashları
- 3.Roşgo'yılıkları
- 4.Kulishları
- 5.Sahovatları
- 6.Hayoları
- 7.Omonatdorlikları
- 8.G'azablari
- 9.Sabruları
- 10.Adolatlari

Bilasizmi?



# Mutolaa vagti



## FIL HIKOYASI

**ABRAXANING FILI BIZLARGA MUHAMMADNING (SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAM)**  
**TUG'ILISHLARI HAQIDA HIKOYA QILADI.**

Mening uzun xartumim bor.

Lekin, aziz bolajonlar, men na o'mondagi fillardan, na siz hayvonot bog'ida tomosha qilgan fillardan emasman. Men uzoq yashadim va Islom tarixida juda shuhrat qozondim. Mening haqimdag'i g'aroyib hamda ibratl hikoyani sizlar ham bilishingizni xohlayman.

Kunlardan bir kun meni habashiylar tutib olishdi baquvvatligimdan foydalanib jangchi fil qilib qo'yishdi. Yaman hokimi Abraxha o'z yurtida dabdabali cherkov qurdirdi. Arablar Makkadagi Baytullohni emas, uning cherkovini ziyorat qilishlarini istadi. Lekin odamlar Abraxanining ibodatxonasiga kelmay Makkani ziyorat qilishda davom etaverdilar. Bu ishdan g'azablangan Abraxha Makkadagi Ka'bani buzishga qaror qildi. Katta qo'shin to'pladi. Abraxha askarlari qatorida meni ham jangga tayyorladi. U ustimga minib Ka'baga kirib borish niyatida edi. Yo'lida askarlarning suhabatidan bildimki, Tabarruk Ka'bani payg'ambar Ibrohim alayhissalom o'g'illari Ismoil alayhissalom bilan birga qurgan ekanlar. Makkaga kirib borishimizga bir kecha qolganida yo'llar ochiq ekanligini ko'rdim. Makka hokimi Abdulmuttalib biz kelayotganligimizni eshitganlarida qo'rqmabdilar. Balki, «bu uyni himoya qiladigan egasi, butun dunyoni yaratgan Hojasibor», deb Ka'bani asrashni Allohga topshiribdilar. Abdulmuttalib ay'tgan bu so'z meni xavfga solib qo'ydi. Yurishga madorim qolmadni. Makka tomonga biron qadam ham bosa olmadim. Oyoqlarim xuddi yerga yopishib qolgandek edi. Abraha va uning askarlari sarosimaga tushishdi. Men ilgari qaysi tomonga boshlashsa ham yurar edim. Ammo Makka tomonga yo'naltirishganda meni qimirlatib bo'lmay qoldi. Meni urishdi, xartumimdan tortishdi, o't bilan kuydirishdi, shunda ham joyimdan jilmadim.

To'satdan g'aroyib bir hodisa ro'y berdi. Osmonda qushlar galasi ko'rindi, ulardan boshqa biron-bir narsani ko'rib bo'lmasdi. Askarlarning «Bu Abobil qushlari, sijjil toshlarini otishyapti», degan ovozlarini eshitdim. (sijjil-qattiq tosh). Ustimirizga mayda toshlar yog'ilal boshladi. Bu toshlardan biri katta fillardan bittasining ustiga tushdi va u fil yerga behol yiqildi. Toshlar hattoki eng baquvvat odamlar ustiga tushsa, ular til tortmay jon taslim qilishardi. Menday, qudratli fil bo'layotgan voqealardan titrar edim. Cho'kkalab qolayotganimni sezdim.



Aziz bolajonlar!

Hikoya sizga manzur bo'layotgan bo'lsa, davomini keyngi sahifada o'qing

Shu payt uzoqda osmon va yerning orasida bir nur ko'rdim. Bu nur Makkadan taralib turardi. Qurayshliklarning hokimi Abdulmuttalibni ham ko'rdim. U odamlarning bir-birini tabriklashayotganiga qarab turar edi. Chunki Abrahaning jangchilari halokatga uchragandi. Ular Makkaga kirishga yoki Ka'bani buzishga qodir bo'lisholmadi. Abdulmuttalib esa tushida ko'rgan voqeani atrofdagilarga so'zlab berardi. Tushida go'yo uning orqasida katta bir zanjir bor ekan. Uning bir uchi osmonda, bir uchi yerda ekan. Bir ozdan so'ng bu zanjir daraxtga aylanibdi. Uning bir bargida nur bor ekan va hamma unga ergashib borayotganmish. Eshitganlar Abdulmuttalibning tushini ta'bir qilib, aytdilarki, uning farzandi Abdulloh o'g'llik bo'ladi. Bu farzandga Sharqu G'arbdagi insonlar ergashib, uning ta'limotidan hidoyat topadilar. Bu ajoyib voqeа bilan Abdulmuttalibni muborakbod qilishib: «Uning ismini nima deb qo'yasan?» deb so'rashdi. «Tug'ilajak farzandga yeri osmondagi mavjudotlarning maqtovigа musharraf bo'lsin, deb Muhammad ismini berurmiz», dedi u. Menday, mashhur filning hikoyasi Muhammadning (alayhissalom) tavalludi bashorati bilan tugaydi, Abraxa va uning askarlari halokatga uchrab yakson bo'ldi. Makka ham, Ka'ba ham omon qoldi. U tomonga Muhammadning (alayhissalom) ummatlari kuniga besh marotaba yuzlani sajda qiladilar. Bu Alloh uchun o'qiladigan namozdir. Bu narsani hidoyatga boshlovchi payg'ambar alayhissalom ularga yetkazdilar. Durudu salovotlarning afzali u zo'tga.



## O'QIGANLARIMIZNI MUSTAHKAMLAYMIZ!

1. Siz o'qigan hikoya Qur'onagi qaysi surada bat afsil berilgan?

---

2. Bu sura Makkada nozil bo'lganmi yoki Madinada?

---

3. Qur'onda fildan boshqa yana qanday hayvonlarning nomlari zikr qilingan?

---




# Islam taqrimi / kalendari

Musulmonlarning bunday kalendar  
ishlatishlariga ALLOH taolo buyurgandir.

**"U QUYOSHNI ZIYO VA OYNI NUR QILGAN HAMDA SIZLAR  
YILLARNING ADADINI VA HISOBINI BILISHINGIZ UCHUN UNING  
MANZILLARINI O'LCHOVLI QILGAN ZOTDIR.."**

**YUNUS: 5**



Islomiy taqvim biz ko'pchiligidan ishlatadigan taqvimdan boshqachadir. Biz maktabda o'rgangan yanvar, fevral, mart bu Gregoriy kalendaridagi oylardir.

Gregoriy kalendar quyoshning harakatlanishiga asoslangan kalendaridir. Islomiy taqvim esa qomariy, ya'ni oyning fazalari o'zgarishiga asoslangan kalendaridir.

Demak, quyosh orqali kun va tun almashinuvini, oy fazalari orqali esa yillar hisobini bilishimiz mumkin ekan.

Islomiy kalendaridagi nafaqat oy nomlari, balki yillarning hisoblanishi ham boshqachadir. Islomiy yil hisobini qaysi yildan boshlanishi kerakligini Xalifa Umar ibn Hattob roziyallohu anhu hal qilganlar, ya'ni Islomiy yil hisobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Makkadan Madinaga hijrat qilgan yildan boshlanishini taklif qilganlar.

Shuning uchun ham Islomiy kalendar Hijriy kalendar deb ataladi. Hozir hijriy hisobda 1441-yildir. Demak, bu yil payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hijrat qilganlariga 1441 yil bo'libdi.

Islomiy taqvimda ham 12 oy bor, ammo ularning nomlanishi boshqacha. Har gal yangi hilol ko'ringanida Islomiy kalendar bo'yicha yangi oy boshlanadi.

## BILIMINGIZNI SINAB KO'RAMIZ!

Bugun Islomiy va Gregoriy kalendarlari bo'yicha qaysi oyning qaysi kuni?

Nima uchun Umar r.a. Islomiy yil hisobini hijrat yilidan boshlanishini joriy qilganlar deb o'ylasiz? Fikringizni ota-onangizga ayting.

Diqqat bilan o'qing!



# Islomiy kalendardagi oylar

**"ALBATTERA, ALLOHNING KITOBIDA OYLARNING SONI ALLOHNING HUZURIDA OSMONLAR-U YERNI YARATGAN KUNI O'N IKKI OY QILIB BELGILANGAN. ULARDAN 4TASI (URUSH QILISH) HAROM (OYLAR)DIR. MANA SHU TO'G'Rİ DINDIR. U(OY)Larda O'ZINGIZGA ZULM QILMANG..."**

**TAVBA: 36**

Taqvimda 12oy bor. Bulardan 4tasi ALLOH taolo nazdida muqaddasroqdir. U oylarda urush qilish harom qilingandir. Ular Muharram, Rajab, Zulqa'da va Zulhijja oylaridir.

**1. MUHARRAM**

**2.SAFAR**

**3.ROBIUL AVVAL**

**4.ROBIUL OXIR**

**5.JUMODUL AVVAL**

**6.JUMODUL OXIR**

**7.RAJAB**

**8.SHA'BON**

**9.RAMAZON**

**10.SHAVVOL**

**11.ZULQA'DA**

**12.ZULHIJJA ISLOMIY**

Diqqat bilan  
o'qing!

# Tópshiriq.

**BO'SH JOYLARNI TO'LDIRING.**



1. \_\_\_\_\_ -Islomiy taqvimning birinchi oyidir.
2. \_\_\_\_\_ oyi Ramazondan oldin keladi.
3. \_\_\_\_\_ oyi Haj qilinadigan oydir.
4. \_\_\_\_\_ oyida ro'za tutish farzdir.
5. \_\_\_\_\_ oyi R harfi bilan boshlanadigan harom oylardan biridir.
6. \_\_\_\_\_ oyi Ramazondan keyin keladi.

**TUSHIRIB QOLDIRILGAN OYLARNING NOMINI YOZING.**



**1. MUHARRAM**

**4.**

**7. RAJAB**

**10.**

**2.**

**5. JUMODUL AVVAL**

**8.**

**11. ZULQA'DA**

**3. ROBIUL AVVAL**

**6.**

**9.**

**12.**



# Topshiriq



## **QUR'ONI KARIMDA ZIKR ETILGAN PAYG'AMBARLARNING ISMLARINI QUYIDAGI BOSHQOTIRMA ICHIDAN TOPING**



q  
↓

|   |    |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |    |
|---|----|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|----|
| I | D  | R | I | S | Y | A | H | Y | O | I | S | Y | A | Q | S  |
| S | Q  | E | R | U | U | Y | Y | P | A | L | I | U | O | G | O  |
| M | B  | A | Z | L | N | Y | A | H | M | O | M | S | V | B | L  |
| O | J  | E | R | A | U | U | J | I | A | H | O | U | E | M | I  |
| I | H  | A | J | Y | S | B | I | S | H | O | Q | F | N | U | H  |
| L | U  | T | F | M | R | S | L | O | Q | R | I | P | U | S | O  |
| O | D  | I | Q | O | A | H | N | D | A | U | K | E | V | O | A  |
| G | R  | S | O | N | M | U | S | O | R | N | A | R | J | N | L  |
| I | G  | H | Y | O | A | A | P | V | I | Y | R | I | A | Z | Y  |
| L | N  | O | I | H | R | Y | Z | U | L | K | I | F | L | A | A  |
| Y | A' | Q | U | B | A | B | N | D | X | O | P | O | A | I | S  |
| O | S  | A | H | A | Y | B | I | Y | O | E | R | F | R | L | A' |
| S | U  | D | O | D | A | M | A | I | B | R | O | H | I | M | H  |
| Z | A  | K | A | R | I | Y | O | M | U | H | A | M | M | A | D  |

Odam

Idris

Nuh

Hud

Solih

Ibrohim

Lut

Ismoil

Ishoq

Ya'qub

Yusuf

Ayyub

Zulkifl

Shuayb

Muso

Horun

Dovud

Sulaymon

Ilyos

Alyasa

Yunus

Zakariyo

Yahyo

Iso

Muhammad ﷺ




# Ming oydan yaxshiroq kecha

“Qadr kechasi” (“Laylatul Qadr”) Ramazon  
oyi ichiga yashirilgan eng fazilatli, ming oydan, ha, bolajonlar e’tibor bering-a  
ming kecha emas, ming oydan yaxshiroq kechadir.

## “ALBATTA, BIZ UNI (QUR’ONNI) QADR KECHASIDA NOZIL QILDIK” QADR:

Bu kechada Qur'on tushishi boshlangan. Bu shunday ulug' kechaki, unda gunohlar  
kechiriladi, duolar qabul qilinadi. Biz qadr kechasi aynan qaysi kechaligini  
aniq bilmaymiz. Rosululloh sollallohu alayhi vassallam Ramazonning  
oxirgi 10 kunidagi toq kechalarda ekanligini aytib o'tganlar.



21, 23, 25, 27, 29 kechalarning birida qadr kechasi yashiringan bo'lishi mumkin. Hadislardagi  
ko'pgina ishoralarga qaraganda, Laylatul Qadr Ramazonning 26 dan 27 o'tadigan  
kechasiga to'g'ri keladi. Bu kechada

Jabroil (Ruhul Amin) alayhissalom boshchiligidida farishtalar yer yuziga tushadilar.

Bu kechada farishtalar mo'minlarga salom beradilar. Qadr kechasi to tong  
onguncha tinchlik va salomatlik bo'ladigan kechadir! Bu haqda Qur'oni Karimning  
“Qadr” kechasida bat afsil ma'lumotlar bor.

Siz bu surani yodlaganmisiz?

Rosululloh sollallohu alayhi vassallam Ramazonning oxirgi o'n  
kunligida belni mahkam bog'lab ibodatlarga berilib ketardilar va oilalarini ham  
uyg'otar edilar

## O'RANGALARIMIZNI MUSTAHKAMLAYMIZ!

Bu kechada \_\_\_\_\_ nozil bo'la boshlagan  
Jabroil (a.s.) va farishtalar bu kechada

\_\_\_\_\_ dan yaxshiroq kecha

Qadr kechasi \_\_\_\_\_

kechalarning biriga yashiringan

Tonggacha \_\_\_\_\_ kechadir.

Gaplarni to'ldiring



# Laylatul Qadriga rejalar

FAZILATI ULUG' BO'LGAN KECHA- QADR  
KECHASINI O'TKAZIB YUBORMASLIK UCHUN QUYIDAGILARGA  
AMAL QILING:

- ◆ Bolajonlar, bilasizmi Islom taqvimi ya'ni kalendarida kecha kundan oldin boshlanadi. Masalan, agar hozir Ramazonning 22 kuni bo'lsa, shu bugun asr namozidan so'ng 23 kun boshlanadi. Yoki, juma kuni payshanba kunining asr namozidan so'ng boshlanadi. Shuning uchun ham toq kechalarga e'tiborli bo'ling. Ota-onangizdan bu haqida yana ham yaxshiroq bilib oling!
- ◆ Kunduzlari uxbab oling!
- ◆ Kecha uchun rejalaringizni yozib chiqing!
- ◆ Allohdan nimalarni so'ramoqchisiz? Duolaringizni yozib oling!
- ◆ Rosululloh sollallohu alayhi vassallam Qadr kechasi uchun o'rgatgan duolarini yodlab oling:

اللَّهُمَّ إِنَّكَ عَفُوٌ تُحِبُّ الْعَفْوَ فَاعْفُ عَنِّي

O'qilishi: Allohumma innaka affuvun tuhibbulafva faaffu a'nni

Tarjimasi: Alloh, Sen Afv etasan(Kechirguvchisan) afv etishni (kechirishni) sevasan, meni ham afv et!

Ajoyib g'oya!

## BU KECHADA ZERIKIB, CHARCHAB QOLMASLIGINGIZ UCHUN IBODATLAR TURINI O'ZGARTIRIB TURINGI

- Qur'on qiroati
- Namoz
- Islomiy kitoblarni o'qish
- Diniy suhabatlar
- Duo qilish



Diqqat bilan o'qing!



Aziz bolajonlar!

Agar juda charchab qolsangiz, kirib dam oling. Siz hali kichik yoshdasiz va sizga to tongga qadar bedor bo'lish shart emas. Alloh sizni va astoydil qilayotgan harakatlaringizni ko'rib turibdi. U albatta, sizni mukofotlaydi!

# QADR kechasidagi duolarim....

## Duo qilish odablari



1. Qiblaga qarab duo qiling!
2. Duo qilganingizda ikki qo'lingizni ko'taring, duodan so'ng yuzingizga surting!
3. Duo qilayotganingizda ko'zlarining qo'llaringizda bo'lsin!
4. Duoning avvalida Allohga hamd ayting, Allohnini maqtang, Uning go'zal ismlarini ayting!
5. So'ng Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallamga salavot ayting!
6. Duoingizni Alloh eshitib turibdi, shuning uchun ijobat qilishiga qattiq ishonib so'rang!
7. Duolaringiz amalga oshishi uchun gunoh qilmang: yolg'on gapirmang, chaqimchilik qilmang, ota-onangiz va yaqinlaringizni hafa qilmang....!
8. Duo ijobat bo'ladigan vaqtarda ko'p duo qiling: Arafa kuni (Hayit bayramidan oldingiz kun), Ramazon oyi, Juma kuni, Qadr kechasi, sahar vaqtiga
9. Duo ijobat bo'ladigan holatlarda ko'p duo qiling: yomg'ir yog'ishni boshlagan vaqt, azon va iqomadan keyin, farz namozidan keyin, iftor paytida, sajda vaqtida
10. Faqat o'zingiz uchun emas, balki, boshqa musulmonlar uchun ham duo qiling!



**MEN ALLOHDAN NIMALARNI SO'RAYMAN?!**



# Qur'on Kariym qanday kitab?



**“...BIZ SENGA O'Z AMRIMIZDAN BIR RUHNI VAHYI QILDIK. SEN KITOB NIMALIGINI HAM, IYMON NIMALIGINI HAM IDROK QILMAS EDING. LEKIN, BIZ UNI BIR NUR QILDIKKI, U BILAN BANDALARIMIZDAN KIMNI XOHLASAK HIDOYAT QILURMIZ. ALBATTA, SEN TO'G'RI YO'LGA HIDOYAT QILURSAN.”**

**SHUARO: 52**

Ramazon- Qur'on oyidir. Qur'on Alloh

taoloning arab tilida bayon etilgan, bizga yo'l ko'rsatish uchun jo'natgan kitobidir. Qur'on payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Jabroil alayhissalom orqali yetkazilgan. Alloh taolo Qur'onдан oldin avvalgi payg'ambar alayhissalomlarga ham kitoblar jo'natgan. Muso alayhissalomga 'Tavrot', Iso alayhissalomga 'Injil'ni, Dovud alayhissalomga 'Zabur'ni va Ibrohim alayhissalomga 'Suhuf' kitoblari tushirilgan. Ammo bu kitoblar odamlar tomonidan o'zgartirib tashlangan yoki yo'qolib ketgan. Alloh taolo nozil qilgan kitoblardan faqatgina Qur'on hech bir o'zgarishsiz, butunligicha saqlanib qolgan.

Qur'on Alloh taoloning so'nggi nozil qilgan Kitobidir. Qiyomatgacha Alloh taolo boshqa kitob nozil qilmaydi. Shuning uchun ham Alloh taoloning O'zi Qur'oni o'zgartirishlardan yoki yo'qolib ketishdan himoya qilishga va'da bergen.

Qur'on bizga Alloh taoloning sifatlari haqida ilm beradi, qiyomat kunini, Jannat va Do'zaxni tasvirlaydi, bizga dars bo'lishi uchun avvalgi payg'ambar alayhissalom hayotlaridan qissalar keltiradi, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hayotlaridan muhim voqealarni hikoya qiladi, Alloh taoloning roziligiga yetkazadigan amallarni ko'rsatadi, qanday xulqqa ega bo'lishimiz kerakligini va Alloh taologa qanday ibodat qilishimiz kerakligini aytadi.

Kimki Qur'onda kelgan ko'rsatmalarga amal qilib yashasa, Alloh taolo undan rozi bo'ladi va payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bilan birgalikda inshaaALLOH Jannatga kiradi.



Aziz bolajonlar!

Qur'oni Karimdagi qaysi surani yaxshi ko'rib yodlaysiz?



# *Qur'an qanday nozil bo'lgan?*

**"ALBATTA, BIZ UNI MUBORAK KECHADA NOZIL QILDIK.."**

**DUHON: 3**


Alloh taolo Qur'oni payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga Jabroil alayhissalom orqali nozil qilgan. Nozil qilish degani bu avval bilib bo'limgan narsani bildirishdir. Demak, odamlar Qur'oni payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga 40 yoshlarida nozil bo'lganiga qadar bilishmagan. Qur'on ikki bosqichda nozil bo'lgan.

## **BIRINCHI BOSQICH**

- Allah taalo Qur'oni butun holida Lavhul Mahfuzdan Jannatning birinchi qavatiga tushirganida sodir bo'lgan. Bu voqealay Laylatul Qadr kechasi deb ataladigan muhim kechada bo'lgan. Lavhul Mahfuz esa qiyomatgacha sodir bo'ladigan barcha voqealar yozilgan kitobdir.

## **IKKINCHI BOSQICH**

Allah taalo O'zi istagan paytda Qur'oni qismlarga bo'lib Jannatning eng quyi qismidan Jabroil alayhissalom orqali Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nozil qildi. Qur'onning to'liq payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga nozil bo'lishiga 23 yil ketdi. Payg'ambarimiz 40 yosh bo'lganlarida Hiro g'orida birinchi oyatlar ya'ni Alaqturasining boshidagi 6 oyati nozil bo'ldi.




# *Tópshiriq.*

**BOLAJONLAR PAYG'AMBARLARGA QAYSI MUQADDAS KITOBLAR NOZIL  
BO'LGANINI ESLAB QOLDINGIZMI?**  
**U HOLDA TOG'RI JAVOBLARNI BIRLASHTIRING!**

Iso a.s




Dovud a.s



Muso a.s



Muhammad ﷺ



Qur'on

Injil

Zabur

Tavrot

## XULOSA



### QUR'ON KITOBI:

- Alloh taolo tomonidan nozil qilingan
- Allohnинг kitobidir
- Arab tilida
- Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nozil qilingan
- Jabroil alayhissalom (farishta) orqali Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga yetkazilgan
- So'nggi ilohiy kitob
- Asl holida saqlangan
- Ramazon oyida nozil bo'lgan
- Qiyomatgacha bu dunyoda saqlanadi
- Alloh taoloning O'zi Qur'oni saqlaydi

Quyidagilarni  
yodda saqlang!



# Farishtalar haqida nimalar bilasiz?

## Ular kimlar?

### TO'RT ULUG' FARISHTA.

**JABROIL A.S. – ALLOHNING BUYRUQLARINI PAYG'AMBARLARGA YETKAZADI**

**MIKOIL A.S. – ALLOH BERGAN RIZQNI ODAMLARGA TAQSIMLAYDI**

**ISROFIL A.S. – QIYOMAT BO'LGANINI HAMMAGA MA'LUM QILADI**

**AZROIL A.S.– ODAMLARNING JONINI OLADI**

#### Farishtalar

Allohning biz ko'ra olmaydigan mahluqotlaridir. Ularning borligi haqida

Allohning kitobi Qur'onidan va Payg'ambarimiz

sollallohu alayhi vassallamning hadislaridan bilib olishimiz mumkin.

Shuning uchun ham ularni ko'rmasak ham

borligiga ishonamiz. Farishta arab tilida "malak", farishtalar esa  
"maloika" deyiladi. Alloh taolo ularni biz odamlardan avval nurdan yaratgan.

Ular gunoh qilmaydilar, doim Allohga ibodat qiladilar. Bizga o'xshab  
yeb-ichmaydilar, uqlamaydilar va aslo charchamaydilar. Ularning soni shunaqangi  
ko'p-ki, buni Allohdan boshqa hech kim aytilib berolmaydi.

#### Farishtalar

Allohning izni bilan turli shakllarda ko'rina olishadi. Alloh ularni ko'p  
qanotli qilib yaratgan. Ularning ba'zilarida ikkitadan, ba'zilarida uchtadan,  
ayrimlarida to'rttadan va boshqalarida undan ham ko'p qanot bor.

#### Ular nima ish qiladilar?

Har bir farishtaning o'z vazifasi bor. Ular Allohning  
arshini ko'tarib turadilar, jannat va do'zax ishlarini bajaradilar, kotib  
farishtalar odamlarning yaxshi va yomon amallarini yozib boradilar, rahmon  
farishtalari insonlarni doim muhofaza qiladilar.



Diqqat bilan  
o'qing!

Aziz bolajonlar!

Darvoqe', o'ng yelkangizdag'i farishtangiz,  
sizni hozir ilm olyapti, deb maqtab yozib qo'ymoqda!

# Jabroil alayhissalom - Farishtalar sardori!

## JABROIL ALAYHISALOM. FARISHTALARNING

**YETAKCHISI BO'LGAN ENG BUYUK FARISHTA. JABROIL ALAYHISALOM ALLOH VA PAYG'AMBARLAR**

**O'RТАСИДА ЕЛЧИЛИК QILGANЛАР. ALЛОННИГ СО'ЗИ – QUR'ONНИ VАHIY QILIB PAYG'AMBARIMIZ SOLLALLOHU ALAYHI VASSALLАMGA YETKAZGANЛАR. NABIY SOLLALLOHU ALAYHI VASSALLАM JABROIL ALAYHISALOMNI ASL QIYOFALARIDA 2 MARTА KО'RGАНЛАR. U JUDA ULKAN VA CHIROYLI FARISHTАDIR. UNING QANOTЛАRI 600ТА BО'LIB HAR BIRI G'ARBУ SHARQNI EGALLAGAN. ALЛОH TAOLO JABROIL ALAYHISALOMNI QUR'ОНDA "RUHUL AMIN", "RUHUL QUDUS" DEB HAM ATAYDI.**

## JABROIL ALAYHISALOM VA PAYG'AMBARLAR

Jabroil alayhissalom payg'ambarlarning yordamchisi bo'lgan. Ularni yaxshi ko'rghan va himoya qilgan. Ibrohim alayhissalomni olovga tashlaganlarida Jabroil alayhissalom paydo bo'lib, "Sizga yordam bera olamanmi, ey Ibrohim", - deb so'raganlar. Lekin Ibrohim alayhissalom Allohning O'zi yetarli himoyachi ekanligini aytganlar. Jabroil alayhissalom shuningdek, Ibrohim alayhissalomning ayollari Xojar onamizga yordamga kelganlar va tovonlari bilan yerga tepib Zamzam bulog'ini o'g'llari Ismoil alayhissalom uchun ochganlar. Jabroil alayhissalom yana payg'ambar Iso alayhissalomni dushmanlar o'lirmoqchi bo'lganlarida ularni samoga ko'tarib ketganlar.

Jabroil alayhissalom va Muhammad sollallohu alayhi vassallam

Jabroil alayhissalomning asosiy vazifalari Allohning vahiyini payg'ambarlarga yetkazish bo'lgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam Hiro g'orida Allohga yolg'iz ibodat qilayotgan vaqtlarida Jabroil alayhissalom odam qiyofasida kelib, ularga uch marta o'qishni buyurdilar. Bir-siqib qo'yib yuborganlardan keyin Nabiy sollallohu alayhi vassallam Qur'oni o'qiy boshladilar. Shundan so'ng Jabroil alayhissalom 23 yil davomida Qur'oni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam qalblariga joylab bordilar.

Diqqat bilan o'qing!






# Topshiriq



## 1. FARISHTALAR HAQIDA NIMALAR BILIB OLGINGIZ?



## 2. JABROIL ALAYHISALOM HAQIDANIMALARNI ESLAB QOLDINGIZ?


---

---


---

## 3. JABROIL ALAYHISALOM PAYG'AMBARLARGA QANDAY YORDAM BERGAN EDILAR?


IBROHIM A.S




ISMOIL A.S



ISO A.S



# Hayitda nima qilamiz?



Ramazon hayiti... Biz bu ulug' va fazilatli bayramni Ramazon oyi tugab, shavvol oyining yangi hiloli ko'ringandan so'ng nishonlaymiz. Odatda Ramazon 29 yoki 30 kun davom etadi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam Ramazon bayrami kayfiyatini his qilish uchun ham hammaga hayit namozi o'qishni buyurganlar. Hayit namozi quyosh chiqqach o'qiladi. Alloh taolo bizga Rosululloh sollallohu alayhi vassallamga ergashishimizni buyuradi. Biz ular kabi namoz o'qiymiz, ular kabi Qur'on o'qiymiz, ular kabi ro'za tutamiz va ular kabi Ramazon ayyomini nishonlaymiz! Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam hayit uchun quyidagicha tayyorgarlik qilishga buyurganlar:



1

Hayit namoziga borishdan avval g'usl qilish



2

Hayit namoziga borishdan avval biror narsa yeb olish.  
Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallam hurmo yer edilar.



3

Namozga borgunlaricha takbir aytib borar edilar: "Allahu akbar, Allahu akbar, Laa ilaaha ilaloh, Allahu akbar, Allahu akbar va lillahil hamd!"



4

Bir-birni ayyom bilan tabriklashi!  
"Taqobbalohu minna va minkum"  
(tarjima)



5

Chiroyli va eng yaxshi kiyimlarni kiyish;



6

Namozga bir yo'ldan borib, boshqa yo'ldan uyga qaytish



# Ramazondan keyin ham yaxshi musulman bo'lishim uchun qanday rejalarim bor?

- ★ 5 mahal namozimni vaqtida o'qish
- ★ Har kuni Qur'on o'qish
- ★ Qur'ondan yangi suralarni yod olish
- ★ Hadislarni ko'proq o'rghanish va sunnatga amal qilish
- ★ Allohning 99 go'zal ismlarini yod olish
  - ★ Doim rost so'zlash
  - ★ Va'dani bajarish
  - ★ Doim hammaga salom berish
  - ★ Hammaga muloyim muomala qilish
  - ★ Jahlimni jilovlashga harakat qilish
- ★ Ota-onamni, kattalarni va ustozlarimni hurmat qilish
- ★ Ota-onamga g'amxo'r bo'lib ularning duolarini olish

## UNDAN TASHQARI

---



---



---



---



---



---



---




---



---



---






## RAMAZON O'YINI

|  |   |  |
|--|---|--|
|  | Musulmonlar bir-birlari bilan qanday salomlashishadi? | Ramazon oyisi tugagandan kevin qaysi havit bayrami nishonlanadi? |
|  | Islomning 5ta asosini ayting.                         | Bir qadam oldinga yuring   |
|  | Hajji qilish uchun qayerga boriladi?                  | Zakot nima?  |
|  | Birinchi va oxirgi o'qiladigan namoz nomini ayting.   | Bizning muqaddas kitobimiz nomi nima?                            |
|  | Ikki qadam ortga yuring                               | Aksa urganiningizza nima deyishingiz kerak?                      |
| Og'iz ochilishini nima deyiladi?                         | Eng oxirgi payg'ambar kim?                            | Ovqatdan avval nima deyiladi?                                    |
| Og'iz ochish uchun yeyiladigan odatiy meaning nomi nima? | Ikki qadam ortga yuring                               | Namozdan oldin poklanish nima deb ataladi?                       |
|  | Bir kunda necha vaqt namoz o'qladi?                   | Azon aytيلاتقاندا ishlataladigan birinchi 2ta so'z qaysilar?     |



Yo'riqnomasi:  
2-3ta bola o'yanshi uchun mo'ljallangan.  
Boshlanishi uchun 1-4gacha sonlar yozilgan  
kubdan foydalaniladi. Tushgan savolga  
to'g'ri javob bergan bola bir qadam oldinga  
yuradi.

|  |  |
|--|--|
|  | Azon aytيلاتقاندا ishlataladigan birinchi 2ta so'z qaysilar? |
|  | Namozdan oldin poklanish nima deb ataladi?                   |



# BUGUN RAMAZON HAYITI



Mana, jazzi muslimon do'stim, Ramazon ham oxiriga yetdi. Qalbingizni ikki hil tuyg'u qamrab olgan bo'lsa kerak. Oylar sultoni Ramazon ketib qalblarimiz ham, uylarimiz ham, kechalarimizu saharlarimiz ham huvillab qolmoqda. Albatta, biz bundan muhzun(hafa) bo'lamiz. Ammo, hayit bayrami sabab, dillarimiz shodlikka to'lgan! Alloh qilgan go'zal amallaringiz tufayli sizdan hursand va rozi bo'ldi insha Alloh! Siz namoz o'qidingiz, charchasangiz ham, qiyalsangiz ham Alloh uchun ro'za tutishga haraka't qildingiz, Qur'on o'qidingiz, ehson-duolar qildingiz, har kuni dinimiz haqida ko'pgina bilimlarga ega bo'lib yaxshi muslimon bo'lishga intildingiz! Qani, do'stim, qo'lingizdagи kitobni boshidan bir varaqlab ko'ring-chi...-Alhamdulillah, shuncha sahifalarni o'qib tugatdingiz. Yangi, yaxshi odatlarga o'rgandingiz. Endi Ramazondan keyin ham bu ishlaringizni davom ettiring


Zero, Rosululloh  
sollallohu alayhi vassallam aytganlaridek, "Allohga suyukli amallarning eng yaxshisi, oz bo'lsa-da davomlisidir!"

(Buxoriy va Muslim rivoyati)

Alloh barcha xayrli ishlaringizni qabul aylab, sizni Jannat bilan mukofotlasin!

Amin!

Ayyom muborak!



# **FOYDALANILGAN MANBALAR**

## **RO'YXATI**

1. Qur'oni Karim
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". "Sharq" nashriyoti, Toshkent. 2012.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Iymon". "Hilol-Nashr" nashriyoti, Toshkent. 2019.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Mo'minning qalqoni. Mufassal ro'za kitobi". "Hilol-Nashr" nashriyoti, Toshkent. 2018.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Mo'minning me'roji (Mufassal namoz) kitobi". "Hilol-Nashr" nashriyoti, Toshkent. 2017.
6. Abdul Azim Ziyouuddin. "Rosululloh sollallohu alayhi vassallam va ahli bayt". "Imom Buxoriy xalqaro markazi", Samarqand. 2019.
7. Ahmad Muhammad Tursun. "Ahmad amakining saboqlari" "Hilol-Nashr" nashriyoti, Toshkent. 2019.
8. Abdutavvob Yusuf. "Muhammad alayhissalom hayotlaridan o'n qissa". "Movarounnahr" nashriyoti, Toshkent. 2004.
9. Ummi.org sayti. "Ramadan Journal for children" . 2018.
10. Hadiyaah Sajid. "Raidah's easy and fun Ramadhan book"